


2020- yil yakuni



NAVOIY VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH TO'G'RISIDA TAHLILiy MATERIAL



*Navoiy viloyati
statistika boshqarmasi*



Tibbiyot muassasalari tarmog'iga shifoxona va ambulatoriya-poliklinika, tez tibbiy yordam, onalik va bolalik himoyasini ta'minlash hamda sanitariya-epidemiologiya yo'nalishidagi va boshqa muassasalar kiradi.

Shifoxona muassasasi – kechayu kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va rehabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

Aholining kasallanishi yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuvi ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.




NAVOIY VILOYATIDA 2020- YIL YAKUNIGA KO'RA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Ma'lumot uchun: ► **Shifoxona** — statsionar sharoitda tibbiy yordam ko'rsatuvchi sog'liqni saqlash muassasasi hisoblanadi

► **Ambulatoriya-poliklinikalari** ambulatoriya sharoitida tibbiy yordam ko'rsatuvchi va (yoki) tibbiy tahlil o'tkazadigan sog'liqni saqlash muassasasi (poliklinikalar, ambulatoriya, dispanserlar, tibbiy-sanitariya qismlari va boshqalar) hisoblanadi.



Navoiy viloyatida davolash-profilaktika muassasalarini mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishi (birlik)



2020- yil yakuni



Viloyatda faoliyat yuritayotgan shifoxona
va ambulatoriya-poliklinikalari soni,
(birlik)



2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Navoiy viloyatida 37 ta shifoxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 21,6 % (8 tasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlar hisoblanadi. Jami shifoxonalar soni 2019- yilga nisbatan 8,8 % ga (3 taga) oshdi.

2020- yil yakuniga ko'ra, Navoiy viloyatida 305 ta ambulatoriya-poliklinikalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 55,1 % (168 tasi) mulkchilik shakli bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar hisoblanadi. Ambulatoriya-poliklinikalari soni bir yil mobaynida 6,3 % ga (18 taga) ko'paydi.





Shifoxona muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari

	2019- y.	2020- y.
Shifoxona muassasalari soni, birlik	34	37
O'rinlar soni, birlik	4055	4274
10 000 aholiga shifoxona o'rinlar soni	41	42
Davolangan bemorlar soni, ming kishi	209,3	356,1
Bemorlar o'tkazgan o'rin kunlar soni, ming.	1326,7	1106,4



2020- yil yakuni



**Shifoxona muassasalarida davolangan
bemorlar soni**
(ming, kishi)

Navoiy

128,7

31,6

Navbahor

Zarafshon

22,1

21,0

Nurota

Karmana

47,1

2,8

Tomdi

Konimex

7,4

13,8

Uchquduq

Qiziltepa

33,3

48,3

Xatirchi

2020- yil oxirida Navoiy viloyatida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni 356,1 kishini tashkil etib, shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahriga to'g'ri keldi va uning soni 128,7 ming kishi ekanligi qayd etildi. Eng kam ko'rsatkich esa Tomdi tumaniga to'g'ri keldi ya'ni 2,8 ming kishini tashkil etdi.






Navoiy viloyatida shifoxonalarda bemor o'rinlari soni (2020- yil yanvar-dekabr)



4274



190



42



Shifoxonalarda
bemor o'rinlar soni,
birlik



Kichik korxonalar va
mikrofirmalardagi bemor
o'rinlar soni, birlik



10 000 aholiga
nisbatan bemor
o'rinlari soni

2020- yilda viloyat bo'yicha shifoxonalarda jami 4274 ta bemor o'rinlari foydalanishda bo'lgan, shundan 4,4 % (190 tasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlarga tegishli. 10 000 aholiga nisbatan bemor o'rinlari soni 42 tani tashkil etmoqda.




Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari

	2019- y.	2020- y.
Ambulatoriya-poliklinikalari soni, birlik	287	305
Quvvati, bir smenada qatnovlar soni, ming	15,7	15,9
10000 aholiga ambulator muassasalarining quvvati	157	157
Ambulatoriya poliklinika muassasalariga qatnovlar soni, ming	10026,6	8090,4
Qayd qilingan kasalliklar soni, ming	572,7	495,5





Tez tibbiy yordam faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (yil oxirida)



Tez tibbiy yordam stansiyalari kichik stansiyalar va punktlari soni 2020- yilda 56 tani tashkil etib, 2019- yilga nisbatan (1 ta) 1,8 % ga oshdi, shu jumladan, 2020- yilda bajarilgan chaqiriqlar soni 390,5 mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,3% (1,2 ming) ga kamaydi. Shuningdek, 2020- yilda tez tibbiy yordam ko'rsatilgan shaxslar soni 599,6 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1 martaga ortdi.



Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganligi
(yil oxirida, kishi)

	Jami shifokorlar soni, kishi	10 000 aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni	Bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni	Jami o'rta tibbiyot xodimlari soni, kishi	10 000 aholiga to'g'ri keladigan o'rta tibbiyot xodimlari soni	Bitta o'rta tibbiyot xodimiga to'g'ri keladigan aholi soni
2019- y.	2899	29	341	13673	137	72
2020- y.	2997	30	335	14276	141	70



Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: (79) 223-54-98